

**MAMLAKATIMIZDA TURIZM SOHASINING SALOHIYATI (RAQAMLI  
KO`RSATKICHLAR ASOSIDA)**

**Zulfiqorov Umid**

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti talabasi.*

*Fakultet: Turizm*

*Guruh: TOUE-31U*

*Ilmiy rahbar: Nurmatova S.Sh*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizda turizmning o'rni hamda rivojlanib borayotgani, O'zbekistonda turizmga berilayotgan e'tibor va mavjud imkoniyatlar, mamlakatimizdagi turizm turlari, turistik moddiy - madaniy me'ros ob'yektlar, tabiiy iqlim sharoiti, o'zbek xalqining mehmondo'stligi, milliy taomlari sayyohlarni o'ziga tortadi. Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston turizmning qadimdan to hozirgi kungacha bo'lgan davrdagi tutgan o'rni hamda O'zbekistonda turizmning rivojlanishi va turizmga bo'lgan e'tibor ortib borishi, xalqaro turizm darajasiga olib chiqish borasida olib borilayotgan qaror - farmonlar qilinayotgan ishlar haqida turizmning mamlakatimizdagi o'rnini yoritib berishdan iborat.

**KIRISH**

O'zbekistonda turizmni rivojlanishiga turtki bo'lgan Buyuk Ipak yo'li G'arb bilan Sharqni bog'lovchi savdo karvoni yo'li vazifasini bajargan. Buyuk Ipak yo'li Miloddan avv II asrdan XIV asr o'rtalarigacha faoliyat ko'rsatgan. Buyuk Ipak yo'li Tranzit yo'l 12 ming kilometrga cho'zilgan. Buyuk Ipak yo'li orqali tavarlar, katta bilim, madaniyat, texnologiya almashinushi, diplomatik aloqalar o'rnatilishida tamal tosh bo'lgan. "Buyuk Ipak yo'li" nomi o'sha davrlarda G'arb mamlakatlari uchun qimmatbaho tovar bo'lmish- ipak bilan bog'liq. Ipak toqish texnologiyasi Xitoyda besh ming yil avval paydo bo'lgan deyiladi. III asrlarda ko'plab mamlakatlar qatori O'zbekistonda ham Farg'ona vodiysida ipak yasash o'rganila boshlangan. Ipak yo'lida Ipak matodan tashqari qimmatbaho toshlar, shisha, ziravorlar, qurol-yarog' va boshqa tavorlar bilan savdo qilishgan. Buyuk Ipak yo'li asta - sekin Farg'ona vodiysidan tashqari boshqa yangi shaharlarda hunarmandchilik rivojlanib bordi xususan Andijon, Buxoro, Shahrisabz, Samarcand, Xiva, Qo'qon kabi shaharlarda hunarmandchilik rivojlanib Buyuk Ipak yo'li bo'y lab tovarlar savdo-sotiq karvonlar uchun karvon saroylar barpo etilib karvonlar tunab o'z tavarlarini sotib ketishga zamin yaratdi. Ipak yo'li butun dunyoga ma'lum bo'lgach tez orada bu yo'l orqali nafaqat karvonchilar, balki afsonaviy sayohatchilarni ham qiziqishi orta boshlagan. Bular Italiyalik Morko Polo Ipak yo'li bo'y lab sayohat qilgan. Hattoki bosqinchi Chingizzon ham Ipak yo'li bo'y lab o'tganligi keltirilgan. O'zbekistonda turizmning rivojlanib borayotgani hech kimga sir emas. Keyingi yillarda turistlarni o'ziga jalab qiluvchi tarixiy shaharlar, Qadimiy madaniy me'ros yodgorliklari, o'zbek milliy urf-odatlari, milliy o'zbek taomlari, tabiat, tarixi, me'morchiligi, ekoturizmi, tibbiyot turizmi, gastronomik turizmi, qishloq xo'jaligi turizmi, ziyyarat turizmi, ekstrimal turizm, go'zal tabiat flora-faunalari, tabiat qo'riqxonalari, hayvonot olami, mexmonxonalar

rivojlanib borishi turistlarni jalg qilib kelmoqda. Turizm sohasida qilinayotgan ishlar qaror-farmonlar va turistlarni jalg qilishga qaratilayotgan chora-tadbirlar, sharoit qulayligi, narx-navo arzonligi, turistik xizmatlar yaxshilanib borishi, tog'lari, turistlarni jalg qilmoqda.

**Kalit so'zlar:** *turistik obektlar, O'zbekiston'dagi turlar, turizm turlari, monumentlar, statistik ko`rsatkichlar, marketing, iqtisodiyot.*

### ASOSIY QISM

O'zbekistonda turizm yaqin yillardan rivojlanishni boshladi. Bu soha O'zbekiston uchun yangi soha bo'lganligi uchun yalpi ichki mahsulotga sezilarli darajada ta'sir ko`rsata olmadi. Lekin turizm kam investitsiya kiritib ko`p foyda oladigan sohalardan biri hisoblanadi. Kop`pchilik davlatlarda turizm asosiy yalpi mahsulotning 80%gacha qoplaydi. Aholining turmush darajasi ham aynan turizm bilan bog`liq. Shunday ekan O'zbekistonda ham turizm sohasini rivojlantirish aholining turmush darajasini yaxshilashga turtki bo`la oladigan sohadir. O'zbekiston 1991-yil mustaqillikga erishgandan so`ng hukumat turizmni iqtisodiyotni rivojlantirish vositasi sifatida rivojlantirishga kirishdi. Mamlakatning boy madaniy merosi, jumladan Islom me'morchiligi hamda Buyuk Ipak yo`lidagi qadimiy shaharlar so`ngi yillarda sayyoohlar soni ortib bormoqda.

XX asrning 60-yillardan boshlab turizmga nisbatan e'tibor tubdan o'zgardi. 1966-1970-yillardagi kapital mablag' oldingi besh yillikka nisbatan 4,5 baravarga oshdi. 1971-1975-yillarda turbazalar, mehmonxonalar, kemping<sup>38</sup> va avtopansionatlar<sup>39</sup> qurilishi boshlandi. 1980-yilga kelib 150dan ortiq turizm tashkilotlari, 575 ta sayr va sayohat byurolari, 6 ming mashinali avtoxo'jaliklar ishga tushirildi. 1985-89 yillarda ichki va hududiy turizmnинг hajmi 1,4-1,6 mln kishini tashkil etdi, bunda chet ellik turistlarning miqdori 130-180 ming kishini tashkil etar edi. Sobiq Ittifoqda O'zbekiston turizmi 3-o'rinni egallardi. Turizm xizmat hajmi 1,5 mln. turist va 6-7 mln. ekskursantdan iborat edi. Qo'shimcha mahalliy mehmonxona va pansionatlar 4-5 mingdan oshdi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so`ng Prezidentimizning bevosita tashabbuslari bilan turizmni rivojlantirish ustuvor masalaga aylandi. O'zbekiston Respublikasida turizmning rivojlanishi beshta bosqichga bo`linadi.

Birinchi bosqich: (o'z ichiga 1992 yilni oladi). Ushbu bosqich respublikamizda milliy turizmning dastlabki shakllantirilishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda turizm infratuzilmasida yetakchi hisoblangan "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasiga asos solindi.

Ikkinci bosqich: (1993-1995 yillar). Bunda turizmning milliy rivojlanish modeli ishlab chiqildi. Ushbu bosqichda turistik xizmatlar ko`rsatish hajmi oshib bordi. "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi turistik operatorlar bilan to`g'ridan-to`g'ri aloqa qilish maqsadida Germaniya (Frankfurt-Mayn), Buyuk Britaniya (London), AQSH (N'yu-York),

<sup>38</sup> Kemping - Chodir vaqtinchalik boshpanada tunashni o'z ichiga olgadigan ochiq havoda tabiat qo'ynda dam olish shakli.

<sup>39</sup> Avtopansionatlar - avtomotlashtirilgan xizmat ko`rsatish tizimi misol mijoz yoqilg'i quyish shaxobchasi yoqilg'ini o'zi to'ldirib to'lov terminali orqali to'lovni amalga oshiradi. Telefoninternet orqali to'lov hamda xarid qilish bankomatlarni misolqilsa ham bo'ladi.

Birlashgan Arab amirliklari (SHarja) va Rossiya (Moskva) kabi mamlakatlarda o`zining vakolatxonalarini ochdi.

Uchinchi bosqich: (1995-1997 yillar). Bunda turistik xizmatlar sohasida xususiyashtirish jarayoni boshlandi. 1996 yilning boshlarida "O`zbekturizm" milliy kompaniyasi tizimidagi turistik ob`ektlar umumiyligini miqdorining 90 foizga yaqini davlat tasarrufidan chiqarildi.

To`rtinchi bosqich: (o`z ichiga 1998 yilni oladi). Bu bosqichda eksport salohiyatini oshirish, valyuta<sup>40</sup>, turistlar investitsiya<sup>41</sup>llarning barqaror oqimini ta`minlash uchun imkoniyat yaratildi. Respublikada milliy turizmni jahon andozalari darajasida shakllantirish turizmga bilvosita tegishli bo`lgan xizmat ko`rsatish infratuzilmasini, xususan, turistlarni xorijdan kutib oladigan chegara, bojxona va aeroport xizmatlarini qayta shakllantirish boshlandi.

Beshinchi bosqich: (1999 yil maydan hozirgi davrgacha). Ushbu bosqichda O`zbekistonning xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalarida turizm bo`yicha maslahatchi lavozimi joriy etildi. Ushbu yilning avgust oyida mamlakat Parlamentida "Turizm to`g`risida" gi qonun qabul qilindi va buning natijasida turizm sohasini faoliyat ko`rsatishining huquqiy asoslari yanada takomillashtirildi.

Hozirgi kunga kelib O`zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun asos solindi deb hisoblasa bo`ladi.

Bunga dalil sifatida 1995 yil 2 iyundagi "Buyuk Ipak yo`li"ni qayta tiklashda O`zbekiston Respublikasi ishtirokini avj oldirish va Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish to`g`risidagi farmonining Prezidentimiz<sup>42</sup> tomonidan qabul qilinishidir .

### TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ushbu ilmiy maqolaning ilmiy yo`nalishini nazariy-uslubiy jihatdan tadqiq etishda ilmiy abstraktsiyalash usulidan foydalanilgan bo`lsa, turizm bo`yicha turistik obyektlar ularning statistik ko`rsatkichlari zamonaviy holatini tahlil qilishda, muammo va rivojlanish istiqbollarini o`rganishda analiz va sintez usulidan foydalanilgan.

Turizmnинг samaradorlik darajasi quyidagi raqamlarda o`z aksini topadi: 2015 yilda eng ko`p xorijlik mehmonlarni qabul qilishda Fransiya (83,7 million), AQSh (74,8 million), Ispaniya (65,0 million), Xitoy (55,6 million) va Italiya (48,6 million) kuchli beshlikda turishibdi. Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya va Meksika kuchli o`ntalikdan joy olgan. Biroq bu ko`rsatkich bo`yicha Yevropa va Osiyoning bir nechta shaharlari yetakchilik qilgan. Bunga misol qilib Hongkong (27,7 million), London (17,4 million), Singapur (17,1 million), Bangkok (16,2 million) va Parij (15,0 million) singari shaharlarni keltirish mumkin.

<sup>40</sup> Valyuta - Tovar va xizmatlarni ayirboshlash sifatida xizmat qiladigan nominal qiymatlik. Qog`oz yoki tanga ko`rinishidagi pul.

<sup>41</sup> Investitsiya - Biznisi rivojlantirish uchun moliyaviy tomonidan qo'llab - quvvatlash mabilag' kiritish.

<sup>42</sup> Prezident - O`zbekiston Respublikasi prezidenti.



2017 yilda O'zbekiston Respublikasiga uzoq xorijiy davlatlardan kelgan chet el fuqarolari sonining mamlakatlar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi

2017 yilning birinchi yarmida yurtimizga 1 million 800 ming nafar sayyoh tashrif buyurgani, bu ko'rsatkich 2016 yilga qaraganda 17 foizga oshgan O'zbekistonga 6,748 million kishi tashrif buyurgan bo'lib, bu 2018-yil statistikasidan 125 foizga (5,346 million kishi) ko'pdir.

O'zbekistonga tashrif buyurgan turistlarning umumiyligi sonidan 6,260 million kishi MDH mamlakatlaridan, 488,4 ming sayyoh esa olis xorij mamlakatlaridan kelgan. Shu bilan birga, 2019-yilda turizm xizmatlarining eksport<sup>43</sup>si 1,313 milliard dollarni tashkil etgan, 2018-yilda u 1,041 milliard dollariga teng bo'lgan (o'sish 126 foiz). Ushbu qiymatning yarmidan ko'prog'ini MDH<sup>44</sup> mamlakatlaridan kelgan sayyoohlolar (966,559 mln. AQSH dollari) sarflagan, 346,472 mln. dollar esa boshqa mamlakatlarning sayohatchilariga to'g'ri keladi. Jahan sayyoohlilik tashkiloti (UNWTO)<sup>45</sup> ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda O'zbekistonga jami 2,9 million xalqaro sayyoh tashrif buyurgan, bu o'tgan yilga nisbatan 27 foizga oshgan. Mamlakatning turizm sanoati COVID-19 pandemiyasidan oldin tez sur'atlar bilan o'sib bordi va hukumat sanoatni tiklar ekan, ushbu o'sishni davom ettirishga harakat qilmoqda. Quyida O'zbekistondagi turizmga oid qo'shimcha statistik ma'lumotlar - 2019-yilda eng ko'p sayyoohlilik manbalari: Rossiya (24%), Qozog'iston (15%), Xitoy (14%), Janubiy

Koreya (10%) va Germaniya (5%). - 2019-yilda xalqaro sayyoohlolar uchun o'rtacha qolish muddati: 5,5 kecha. - 2019-yilda eng ko'p sayyoohlilik yo'nalishlari: Samarqand (55%), Buxoro (25%) va Xiva (10%). - 2019-yilda O'zbekistonda mehmonxona xonalari soni: 30 000 ta. - 2019-yilda O'zbekistonda sayyoohlilik agentliklari soni: 352 ta. - 2019-yilda turizm sohasining O'zbekiston yalpi ichki mahsulotiga qo'shgan hissasi: 4,2 foiz. 2019-yilda O'zbekistonda turizm sanoati tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ish o'rirlari soni: 480

<sup>43</sup> Eksport - Mamlakatda ishlab chiqarilgan, ammo chet eliste'molchilariga sotiladigan tovar.

<sup>44</sup> MDH - Mustaqil davlatlar hamdo'stligi - Ilgari Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan davlatlar o'tasidagi hamkorlik munosabatlari tartibga solish uchun mo'ljallangan xalqaro tashkilot.

<sup>45</sup> UNWTO - Jahan sayyoohlilik sayyoohlilik tashkiloti - Barqaror va qulay turizmni rivojlantirishbilan shug'ullanadigan tashkilot. 1975-yil 2-yanvarda kuchga kirgan faoliyati. Bosh qarorgohi Ispaniya Madridda joylashgan.

ming. Bu statistik ma'lumotlar O'zbekistonda turizm muhim soha ekanligini, uning o'sishi va rivojlanishini davom ettirish uchun davlat va xususiy sektor tomonidan ish olib borilayotganidan dalolat beradi.O'zbekiston katta tarixiy madaniy merosga – 7300 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalarga ega. Ularning ko'pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizdag'i 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YUNESKO<sup>46</sup>ning madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.



O'zbekiston Respublikasida turistik xizmatlar hajmining 2005-2019 yillardagi o'sish dinamikasi

Joriy yilning 22 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev parlamentga Murojaatida barcha sohalar qatorida turizm sanoati borasida quyidagi fikrlarni bildirdi:«Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O'zbekiston turizm sohasida dunyo bo'yicha ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros obektlari mavjud va ularning qariyb 200 tasi YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan.Prezidentimiz dunyoning 33 ta mamlakatida O'zbekiston elchixonalari faoliyat ko'rsatayotgan elchilarga qarata qilgan onlayn murojaatida O'zbekistonga xorijiy investitsiya hamda turistlarni jalb qilishni, ayniqsa, har bir elchiga har kuni 10 nafar sayyoh jo'natishga e'tibor berishni ta'kidladi. Ya'ni, turist ham investitsiya degani, degan g'oyani ilgari surdi.Hozirgacha xorijiy mamlakatlarda O'zbekiston haqida ko'proq ma'lumotlarni targ'ibot qilishda oqsoqlikka yo'l qo'yilmoqda. Xususan, bugungi kunda yurtimizga tashrif buyurayotgan aksariyat sayyoohlар turizm firmalari tomonidan jalb etilmoqda. Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida O'zbekiston va aholisi haqida yetarlicha ma'lumotga ega emas.. Ular aynan turfirmalar orqali eshitib, qiziqish bildirib kelishmoqda.Ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda turizmning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2 foizni tashkil etadi. Bu judayam past ko'rsatkich. Turizm faoliyatini amalga oshirgan firma va tashkilotlarning soni esa 433 tadan iborat.Yalpi ichki mahsulotining 11%ini tashkil qilmoqda. So'nggi 40 yil davomida boshqa

<sup>46</sup> YUNESKO - Tashkilot bo'lib taqrixiy obyektlarni muhofaza qilishni o'z ichiga oladi.

mamlakatlarga tashrif buyuruvchi turistlar soni 20 martaga turizmdan keluvchi daromad 60 martaga oshdi va xalqaro turizmdan olinuvchi daromad 400 mlrd dollarga etdi.O'zbekistonda turizmning turlari: O'zbekistonda sayyohlar ko'rishi mumkin bo'lgan bir qancha turizm turari mavjud, jumladan:

Madaniy turizm: O'zbekiston o'zining boy madaniy merosi bilan mashhur bo'lib, tashrif buyuruvchilar Samarqanddagi Registon, Buxoro Ark qo'rg'oni, Xivadagi Ichon qal'a kabi qadimiy shaharlar, muzeylar va tarixiy diqqatga sazovor joylar bilan tanishishlari mumkin.

Ekoturizm: O'zbekiston tog'lari, cho'llar va daryolarni o'z ichiga olgan rang - barang tabiiy landshaftga ega. Tashrif buyuruvchilar milliy bog'lar, qo'riqxonalar va qishloq hududlarini kezib, mamlakatning tabiiy go'zalligi va yovvoyi tabiat bilan tanishishlari mumkin.

Sarguzasht turizmi: O'zbekistonda trekking, alpinizm chang'i sporti va rafting<sup>47</sup> kabi sarguzashtli sport turlariga tegishli sarguzashtga boy turizm turi bor.

Diniy turizm: O'zbekiston Islom tarixi va madaniyatining muhim markazi bo'lib, tashrif buyuruvchilar butun mamlakat bo'ylab masjidlar, madrasalar, maqbaralar bilan tanishishlari mumkin.

Tibbiy turizmi: O'zbekistonga nafaqat qadimiy me'moriy obidalarni ko'rish, betakror tabiat va madaniyatdan bahramand bo'lish, balki sog'lig'ingizni yaxshilash uchun ham tashrif buyurishingiz mumkin. Tibbiy xizmatlarni ko'rsatish, chet el dagi ta'tilda yuqori malakali tibbiy yordam olish. Zomin sanotoriyani Jizzaxda joylashgan misol keltirish mumkin.

Gastronomik turizmi: O'zbek oshxonasi, ehtimol, dunyodagi eng xilma-xil va rang-barang taomlar jamlangan. Agar siz dunyodagi eng mazali palov, ko'mirdagi shirali qo'zichoq, tandir-kabob, achchiq lag'mon yoki tiniq samsadan bahramand bo'lishni istasangiz-O'zbekistonga tashrif buyuring. An'anaviy taomlar: O'zbek noni - non, patir, shirmoi-non, katlama.Xamirli taomlar: somsa, manti, xonim, chuchvara, norin, qovurma lag'mon.Guruchli taomlar: palov, moshkichiri, moshhurda, mastava, hasip.Uzumdan: vinolari kiradi.

Qishloq xo'jalik turizmi: O'zbekiston sayyohlik kompaniyalari turli etnik turlarni taklif etadi. Qishloq aholisi hayotida ishtiroy etishingiz, chekka qishloqda yoki uylarda yashashingiz, qishloq mahaliy aholi to'y va boshqa shu kabi urf-odatlar bilan tanishishingiz va unda ishtiroy etishingiz mumkin. Ot va tuyalarga minishingiz rang - barang cho'l va tabiat ekzotik manzaralarga boy sayohatni amalga oshirishingiz mumkin.

Ekstremal turizmi: Ko'pincha sho'k turizmi deb ham yuritiladi. Turizm industriyasida xavfli joylarga ( tog'lar, o'rmonlar, cho'llar, g'orlar, va shu kabi joylarga sayohat qilish yoki xavli turizmda ishtiroy etish bilan bog'liq joy, voqealar sportga xos holatlar mos keladi.

<sup>47</sup> Rafting - tog' daryolarida sun'iy eshkak eshish kanallarida 6, 4 va 2 o'rindiqli puflama qayiqlarda suzish. Rossiyada rafting "Camel" kompaniyasining reklamasidan so'ng tez rivojlanib boshlagan. Keyin ushbu sport g'oyasi tug'ulishiga sabab bo'lib, turistik musobaqlarga kiritila boshlangan.

Yoshlar turizmi: Do'stlar bilan sayohat qilganimizda O'zbekistonda yoshlar turizmi bor bo'lgan afzalliklarga ega. Arzon narxga ega bo'lgan. Lagerlar va Yotoqxonalar.<sup>24</sup> soatlik Tungi Barlar va Restoranlar.Yoshlar festivali Dj<sup>48</sup>-lar bilan musiqiy tadbirlar o'tkaziladi.

Sport turizmi: O'zbekiston o'zining keng va xilma-xil landshaftlari tufayli ekstremal sport turlari uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etmoqda, garchi bu sport turlari mamlakatda hali ham yangi bo'lsada.

Ekstremal chang'i, snoubord. Mototsikl poygasi, Motokros.Skeytbord, tog' velosipedi, toshga chiqish, Paragliding.

Ekstrimal chang'i - Ekstremal tarizdapastga tushish cang'isi friraydning ektremal turidir. Ushbu turdag'i tushish tog'li yerda uzoq va o'ta tik yon bag'rilarlarida amalgam shiriladi. Bu atama dastlab 1970 - yillarda Frantsuz chang'ichilari tomonidan “ekstremal chang'i sporti” sifatida kiritilgan. Tik tog'dan pastga qarab chang'ida tushibborasiz.

Snoubord - Bu foydalanuvchi ikkala oyog'ini bir xil taxtaga qo'yadigan taxta, oyoqlar taxtaga mahkamlanadi. Foydalanuvchi qorda uchadi. Bu sport turi bo'lib ommalashib bormoqda.

Mototsikl poygasi - Mototsikllardan raqobat bardosh foydalanish, professionallar va havaskorlar tomonidan yo'llarda, tabiiy yerlarda shug'ullanadigan sport.

Motokros - Mototsikldan foydalaniladigan sport turlaridan biri, Tabiiy va sun'iy to'siqlar bilan yopiq yo'llar bo'ylab noteks qo'pol yerlarda o'tkaziladigan sport turi.

Skeytbord - To'rt g'ildirakga ga bo'lgan taxta turli harakatlar orqali uchadigan ekstrimal sport turi.

Tog' velosipedi - Bu maxsus jihozlangan tog' yoki gibrid yo'llarda velosipedidan foydalanadigan holda, odatda qo'pol yerlarda velosipedni haydashni o'z ichiga olagan ekstremal sport turi. Bu sport turi namuna sifatida 1896 - yilda Yellowstounga Buffalo askarlarining ekspeditsiyasi paytida vujudga kela boshlagan va 1940 - yilda sport turiga aylangan. Birinchi championat 1950- yilda o'tkazilgan. 1955 - yilda Buyuk Britaniyada birinchi tog' velosiped assotsiatsiyasi 49tashkil etiltgan. 1980 - yilda Amerika Qo'shma Shtatlarda ham rivojlanib borgan.

Paragliding - Paraplanda uchuvchi paraplanchilarning ko'ngilochar va raqobatbardosh sarguzasht sport turi. Yengil vaznli, ekin uchadigan, piyoda uchadigan, qattiq asosiy tuzilmaga ega bo'lмаган samalyot. Uchuvchi jabduqda o'tiradi yoki mato qanoti ostiga osilgan pillaga o'xshash “ko'ndak50” da yotadi. Havo oqimiga qarab uchadi.

Toshga chiqish - tog' tekisligiga tirmashib arqon yordamida tepaga ko'tarilish, ekstremal sport turi xisoblanadi.

Ishbilarmonlik turizmi shuningdek korpativ turizm industriyasiga<sup>51</sup> sohasi bilan bir qatorda, xizmat safarlarini tashkil etish va boshqarishni ta'minlaydi va ishbilarmonlik

<sup>48</sup> Dj - musiqa chalib shu musiqaga mos qo'shiq kuylovchi shaxs.

<sup>49</sup> Assotsiatsiya - (Inglizcha Association - Uyushma ma'lum bir naqsad uchun birlashgan shaxslar guruhi, kodeksning 501 (a) bo'limiga muvofiq, assotsiatsiya yozma hujjatga ega bo'lishi kerak masalan tasis hujjatlari.

<sup>50</sup> Ko'ndak (yun - kontakion) cherkov vizantiya gimnografiyasiga ma'lum bir bayramiga bag'ishlangan she'riy janr. Bizda ushalab turadigan odamni qismi.

<sup>51</sup> Industiriya -turistlar istemoli uchun zarur bo'lgan xizmatlar.

sayohatlari, turli kompaniya xodimlari bilan uchrashuvlar. Korporativ<sup>52</sup> tadbirlar va uchrashuvlar sohasi ham beznes turizmi bilan bevosita bog'liqdir Qonunlar Prezident turizmga tegishli so'zlari qonun farmonlari ,strategiyalari.So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati mamlakatda turizmni rivojlantirish va rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Turizm bilan bog'liq eng muhim qonun va qarorlardan ba'zilari:

1. O'zbekistonda turizm sohasini tartibga solish va turizmni barqaror rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida 1999-yilda “Turizm to'g'risida”gi qonun qabul qilingan.

2. Turizmning huquqiy asoslarini takomillashtirish va sohaga sarmoya kiritishni rag'batlantirish maqsadida 2018-yilda Prezidentning “Turizm industriyasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni qabul qilingan.

3. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish va mamlakatimizga tashrif buyuruvchilarni yanada ko'proq jalg etish maqsadida 2020-yilda “Toshkent shahridagi xalqaro aeroport yaqinida erkin turistik zona tashkil etish to'g'risida”gi Prezident qarori qabul qilindi.

4. Prezidentning 2021-yilda “O'zbekiston Respublikasida turizmni 2021-2025-yillarda rivojlantirish to'g'risida”gi qarori turizm sohasini kelgusi besh yilda rivojlantirish strategiyasini belgilab berish maqsadida qabul qilindi. Farmonda turizm infratuzilmasini yaxshilash, sayyoqlik mahsulotlarini targ'ib qilish, O'zbekistonga kelayotgan sayyoqlar sonini ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlar o'rinn olgan.2019 yil 13 avgust kuni O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi prezident farmoni qabul qilindi. Bu haqda «Huquqiy axborot» kanali orqali xabar berildi.Farmonga muvofiq 2020 yil 1 yanvardan: Turizm faoliyati sub'ektlari va aviatashuvchilarning xorijiy mamlakatlardan O'zbekistonga charter reyslarini tashkil qilish bo'yicha xarajatlarining bir qismi har bir xorijiy turist uchun, u respublika hududida kamida besh kecha tunab qolgan taqdirda, 20 AQSH dollari, qish mavsumida (20 noyabrdan 20 fevralgacha) esa 50 ta xorijiy kinokompaniyalarning O'zbekiston hududida audiovizual mahsulotlar (kino, tele va videofilm, klip, multfilm, animelar<sup>53</sup>) yaratishdagi xarajatlarining bir qismi («rebate»<sup>54</sup>) bitta mahsulot uchun 300 ming AQSH dollaridan oshmagan miqdorda qoplab beriladi;O'zbekistonning tarixiy va afsonaviy shaxslari to'g'risidagi to'liq metrajli badiiy, qisqa metrajli badiiy, xronikal<sup>55</sup> hujjatli filmlarni suratga olish uchun 3 milliard so'mdan oshmagan miqdorda grantlar ajratiladi;Tadbirkorlik sub'ektlarining respublika hududlarida (Toshkent shahridan tashqari) chet el taomlariga yoki alohida yo'nalishga ixtisoslashtirilgan mavzuli ovqatlanish shoxobchalarini, shuningdek, «karaoke<sup>56</sup>» zallari va turistik qo'ngilochar muassasalarni tashkil etish xarajatlarining bir qismi har bir loyiha uchun 10 million so'm miqdorida qoplanadi.

Turagent , mexmonxona va memoriy yodgorliklar soni:

<sup>52</sup> Korparativ - lotincha corporatio-birlashma uyushma,hamjamiyat) rivojlangan yirik aksiyadorlar jamiyatidir.

<sup>53</sup> Anime - Animatsiya multiplikatsion ko'rinishdagi harakatlar va ko'rinishlar multfilimlar kiradi.

<sup>54</sup> Rebate - chegirmalar rag'batlantiruvchi dastur. Yetkazibberuvchi o'z mijozlariga sotib olishda belgilangan maqsadlarga erishish uchun pul mukofotini taklif qiladi. Sharhnomaga muvofiq mijoz xariddan so'ng tavar narxining bir foizini qaytarib oladi.

<sup>55</sup> Xronikal - vaqt yilnomalar yani voqealar sodir bo'lgan tartibda tarixiy bo'lgan voqeani aks ettirish.


<sup>56</sup> Karaoke - Qo'shiqni yozilib ekranda ko'ringan so'zlarga qarab kuylash.

1. Turagentlar soni: O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda litsenziyalangan turoperatorlar va sayyoqlik agentliklari soni 797 tani tashkil etgan.

2. Mehmonxonalar soni: 2021-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda 1200 dan ortiq mehmonxona va mehmonxonalar mavjud bo'lib, ularda jami 50.000dan ortiq xona mavjud. Bularga hashamatli mehmonxonalardan tortib to byudjetli mehmonxonalargacha bo'lgan turar joy variantlari kiradi.

3. Me'moriy yodgorliklar soni: O'zbekistonda juda ko'p me'moriy yodgorliklar, jumladan, qadimiy shaharlar, masjidlar, maqbaralar va qal'alar joylashgan. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda 7 mingdan ortiq tarixiy va madaniyat yodgorliklari mavjud. Eng mashhur yodgorliklarga Samarqanddagi Registon, Buxorodagi Ark qal'asi, Xivadagi Ichon-qal'a qo'rg'oni kiradi. Eslatib o'tamiz, O'zbekistonning turizm sanoati rivojlanib, o'sishda davom etar ekan, bu raqamlar o'zgarishi mumkin. O'zbekiston katta tarixiy-madaniy merosga – 7300 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalarga ega. Ularning ko'pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizdagi 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YUNESKOning madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. 2018 yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan 5 346 219 nafar sayyohdan 5 020 392 nafari MDH mamlakatlaridan kelgan, uzoq xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurganlar soni esa 325 827 nafarni tashkil qildi. O'zbekistonga kelgan sayyoohlar orasida eng katta ko'rsatkich qo'shni Qozog'iston fuqarolari tomonidan qayd etilgan: 2 293 077 nafar. Undan keyingi o'rinda 1 095 505 fuqarosi bilan Tojikiston va 1 055 688 fuqarosi bilan Qirg'iziston kelgan. Uzoq xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurganlar orasida esa Turkiya fuqarolari yetakchilik qilmoqda: 41 299 nafar. Keyingi o'rirlarda 32 444 kishi bilan Xitoy va 27 269 sayyooh bilan Janubiy Koreya qayd etilgan.

Viza va ro'yxatga olish jarayonlarining soddalashuvi O'tgan yil davomida 9 mamlakat uchun vizasiz rejim e'lon qilindi. Fuqarolari uchun soddalashtirilgan viza rejimi qo'llanuvchi mamlakatlar soni esa 12 tadan 50 taga oshdi. 2018 yilning 15 iyulidan va'da qilinganidek elektron kirish vizalarini rasmiylashtirish va berish tizimi ishlay boshladи. Xorijiy fuqarolarni vaqtinchalik ro'yxatga qo'yish to'liq elektron formatdagi E-MEHMON tizimiga o'tkazildi. O'zbekistondan tranzit orqali o'tuvchi 101 davlat fuqarolari uchun mamlakatda vaqtinchalik vizasiz bo'lish tartibi kiritildi.



Monumental<sup>57</sup> san'at yodgorliklari soni:

2022-yilning 1-yanvar holatiga respublikamizda jami moddiy madaniy meros obyektlari soni 8 210 tani tashkil etgan bo'lib, shundan 617 tasi (jami moddiy madaniy meros obyektlarining 7,5 %-i) monumental san'at yodgorliklari hisoblanadi.

Hududlar kesimida monumental san'at yodgorliklari soni:

Qoraqalpog'iston Resp.- 88

Xorazm - 81

Toshkent - 74

Jizzax - 59

Toshkent sh. - 4

Turizm dunyo tamaddumining bosh gultoji bo'lib, hozirgi kunda sayohat insoniyat maqsadlarining asosini tashkil qilib kelmoqda. Ayniqsa, milliy turizmnинг rivojlantirish istiqbollari, O'zbekistonda turizm industriyasining jahon bozoridagi mavqeini oshirishga ko'maklashadi. Fikrimizning isboti sifatida bugungi kunda turizm sohasida katta yutuqlarga erishilayotganligi, tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligi, yangidan – yangi mehmonxonalarning barpo etilayotganligi, ishchi o'rirlari sonining ko'payishi, malakali mutaxassislarning ortib borishi, turistlar oqimining yildan – yilga ko'payayotganligini ta'kidlab o'tishimiz joiz deb hisoblaymiz. Albatta O'zbekistonning qulay iqlim sharoitlari va o'ziga xos landshaftini inobatga olganda sport va ekologik turizmning rivojlanishi uchun barcha asoslar mavjud. Farg'onan vodiysi va Toshkent viloyati ajoyib tog' tizimlari, gullagan vodiylar va ajoyib tog' daryolariga boy. Tog'ning toza havosi, yil davomida quyoshli kunlarning ko'pligi, ajoyib tog' manzaralari nafaqat O'zbekiston fuqarolarining, balki Qozog'iston, Qирг'изистон va Tojikiston kabi qo'shni mamlakatlarning aholisi ham tashrif buyuruvchi turizm obyektlariga aylanishiga imkon beradi. O'zbekiston hududida mineral

<sup>57</sup> Monumental - lotincha - “moneo” olingen bo'lib eslab qolish degan ma'noni anglatadi. Haykallar yogorlilari kiradi. Misol Abu Ali Ibn Sino, Amir Temur buyuk shaxslr siyosidagi haykallar monument xisoblanadi.

suvlarning turli xil turlari keng tarqalgan, mamlakatdagi 300 dan ortiq shifobaxsh yer osti mineral suv manbalariga ko`plab odam tashrif buyuradi.

Hozirgi kunda bu manbalardan 121 tasi faoliyat yuritmoqda. Chimyon va To`rtko`l kabi tog' – chang'i sportini rivojlantirish mumkin bo`lgan bir qancha tog' maskanlari mavjud. Baland qorli tog'lar, alpinizm, speleoturizm, daryo turizmi kabi turli tog' turizmi turlarini amalgamoshirish imkonini beradi. Shifobaxsh giyohlarning ko`pligi turli xil ekologik turlar, turli giyohlar va o'simliklar yig'ish uchun turlarni tashkil etishga imkoniyat yaratadi. Bu esa ko`plab chet ellik turistlar orasida qiziqish uyg'otadi. Turizmning hozirgi holatini baholar ekanmiz, shuni qayd etish muhimki, O'zbekistonda infratuzilmaning rivojlanish darajasi chet ellik turistlarning ehtiyojlarini to`liq qondira olmayapti.

Infratuzilmaning 58rivojlanmaganligiga raqobat va takomillashishni rag'batlantirish

	201 0	201 1	201 2	201 3	201 4	201 5	201 6	201 7	201 8	201 9	202 0	202 1
Toshkent shahri	221	233	248	234	256	285	314	321	340	332	229	178
tumanlar:												
Uchtepa	2	2	2	2	2	2	2	2	5	5	1	4
Bektemir	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	2	1
Yunusobod	33	5	7	5	8	0	4	9	4	1	6	8
Mirzo Ulug'bek	1	6	8	6	0	5	1	2	3	7	0	3
Mirobod	1	2	6	4	2	8	6	9	6	6	2	2
Shayhontohu r	2	3	5	3	5	2	5	5	2	8	7	8
Olmazor	5	5	5	5	5	5	6	5	7	11	4	2
Sergeli	2	2	2	2	2	2	2	3	3	4	2	0
Yakkasaroy	34	39	40	38	42	48	53	56	61	51	40	26
Yashnobod	12	13	14	12	12	12	12	16	13	15	17	13
Yangihayot	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1
Chilonzor	18	15	18	16	17	20	22	23	25	23	8	10

imkonini bermagan avvalgi ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sababchi hisoblanadi. Infratuzilma yetarlicha rivojlanmagan taqdirda turistlar oqimini ko`paytirish va shunga mos ravishda valyuta tushumini ko`paytirish mumkin emas. Bundan kelib chiqqan holda infratuzilmaning ahvoliturizmning rivojlanishi va mamlakat imidjini shakllantirishga bevosita ta'sir ko`rsatadi.

Bosh vazir o'rinosi Aziz Abduhakimovning 59so'ziga doir 2019-2025 yillar uchun Turizmni rivojlantirish konsepsiysi<sup>58</sup> bo'yicha olti yil ichida turizmning O'zbekiston yalpi

<sup>58</sup> Infratuzilma – yo'l, iqtisodiyot inshootlar, binolar, elektr ta'minoti kabilarni rivojlantirish tuzilma.

ichki mahsulotidagi ulushini - 2,3 foizdan (2017 y.) 5 foizga, xorijlik sayyoohlar sonini esa 9-10 million nafarga, jumladan uzoq xorijiy mamlakatlardan keluvchi turistlar sonini 2 milliongacha oshirish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, turizm eksporti hajmini 950 million dollardan 2,2 milliard dollargacha oshirish kutilmoqda. Joylashuv vositalari sonini esa 850 tadan 3000 tagacha chiqarish rejalashtirilgan. Turopertorlar soni ham 860 tadan deyarli ikki baravarga oshishi ko‘zda tutilgan.

### 2018-2019 YILLARDA CHET ELLIK TURISTLAR SONI VA ULARNING FARQLARI

Bundan tashqari, xorijiy turistlarning O‘zbekistonda bo‘lish o‘rtacha vaqtini kamida 8 kunga yetkazishni maqsad qilganimiz, ya’ni har bir shaharda - kamida 3 kundan, hozir ular har bir shaharda ko‘pi bilan 1,5-2 kun qolishadi»Shuningdek, ma’lum qilinishicha, «O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil» nomli ichki turizmni rivojlantirishga yo‘naltirilgan dastur doirasida mahalliy sayyoohlar sonini ham deyarli ikki baravarga - 14 milliondan 25 milliongacha oshirish ko‘zda tutilmoqda

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda: Turizm bugungi kunda tez rivojlanayotgan va daromadi bo‘yicha yetakchi sohalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda turizm jahon eksportida o‘zining ulkan hissasiga ega bo‘ldi va butun jahon yalpi ichki mahsulotining 11%ini tashkil qilmoqda. So‘nggi 40 yil davomida boshqa mamlakatlarga tashrif buyuruvchi turistlar soni 20 martaga turizmdan keluvchi daromad 60 martaga oshdi va xalqaro turizmdan olinuvchi daromad 400 mlrd dollarga etdi. Xususan, O‘zbekistonda erishilayotgan muvaffaqiyatlar zaminida iqtisodiyotni liberallashtirishni<sup>60</sup> chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash<sup>61</sup>, barcha sohalarni, xususan, xizmat ko`rsatish sohasining yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lgan turizmni ham barqaror rivojlantirish yotibdi. Fikrimning isboti sifatida bugungi kunda turizm sohasida katta yutuqlarga erishilayotganligi, tez sur’atlar bilan o’sib borayotganligi, yangidan – yangi mehmonxonalarining barpo etilayotganligi, ishchi o‘rinlari sonining ko`payishi, malakali mutaxassislarining ortib borishi, turistlar oqimining yildan – yilga ko`payayotganligini ta’kidlab o`tishimni joiz deb hisoblayman. Albatta O‘zbekistonning qulay iqlim sharoitlari va o‘ziga xos landshaftini<sup>62</sup> inobatga olganda sport va ekologik turizmning rivojlanishi uchun barcha asoslar mayjud. Qadimiy yodgorliklar o‘rganilmagan va o‘rganilgan qadamjo joylar, ziyoratgohlar tarixiy obidalarimiz yaqol misol bola oladi.

<sup>59</sup> Aziz Abduhakimov – Bosh vazir o‘rinnbosari iqtisodchi Yaponiya Xitotsubashi universiteti magistraturasini tamomlagan.

<sup>60</sup> Liberallashtirish - Davlat nazoratini yumshatish ijtimoiy masalalar ajralish kabi masalalarni qonuniy tomonidan yumshatish. Ko‘pincha iqtisodiy atama sifatida ishlataladi. Xalqaro savdo kapital cheklovlarini yengillashtirish nazarda tutiladi.

<sup>61</sup> Modernizatsiya - An’anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o’tish. An’anaviy iqtisodiyotdan zamonaviy raqamli iqtisodiyotga o’tish.

<sup>62</sup> Landshaft - Gollandcha “ landschap” so‘zidan kelib chiqib qishloq rasmlariga berilgan nom. Geografik atama rassomlar tomonidan yerning o‘zini chizishadi. Tabiat go’zal bo‘lgan yerlar shu kabilar kiradi.

**FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Turizm sayyohlik. T.Xoldarov , X.Tulenova Toshkent 2016 yil.
2. Review.uz
- 3.<https://www.prezident.uz>
4. Abdulqosimov X. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish muammolari va istiqbollari.
5. Gazeta.uz
6. “O'zbekiston Respublikasini turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PF-5611, 05.01.2019y.
7. UNWTO barometer 2018 – World Tourism Organization (UNWTO), april 2018.<https://www.moodiedavittreport.com/wp-content/uploads/2018/04/wto-l.png>
8. World Travel Trends 2018/2019.
9. O'zbekistonda 2020 yilga qadar yana 100 ta mehmonxona quriladi <http://www.xs.uz/uz/post/ozbekistonda-2020-yilga-qadar-yana-100-ta-mehmonkhona-quriladi>
10. <https://kun.uz/news/2019/01/30/ozbekistonda-turizmsohasida-amalga-oshirilganishlar-sarhisobi ва yaqinkelajak-uchun-prognozlar>
11. <https://toshstat.uz>
12. Normatova, S. A., Botirov, M. T., Ruzmatova, K. K., & ugli Mamarasulov, J. O. Hygienic Basis for Contamination of Food Products and Production of Dairy Products Until 2030. International Journal of Health and Medical Sciences, 4(1), 123-128.
13. Botirov, M. T., Normatova, S. A., NIZAMETDINOVA, M., SHODMONOV, U., & MAMARASULOV, J. (2021). INFLUENCE OF OIL AND OIL PRODUCTS ON LIVING ORGANISMS AND METHODS OF SOIL PURIFICATION FROM OIL PRODUCTS. Asian Journal of Advances in Research, 28-32.
14. Mamarasulov, J. (2022). FABACEAE FAMILY IN FLORA IN THE FERGANA VALLEY, RARE SPECIES OF ASTRAGALUS. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(11), 117-119.
15. Abarjon o'g'li, A. A., & Barchinoy, M. (2022). YER USTI VA OSTI SUVLEARINI IFLOSLANTIRUVCHI ASOSIY MANBALAR. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(20), 216-219.
16. Abarjon o'g'li, A. A. (2022). SHAHARLASHUV JARAYONINI ATROF-MUHITGA TA'SIRI. INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022, 2(14), 70-73.
17. Madaminovna, K. S., Furkatovna, G. M., & Adakhamjon, A. (2023). SIGNIFICANCE OF SOIL FERTILITY IN FERGANA REGION. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1320-1324.
18. Akramov, A. (2022). USE OF DIDACTIC GAME TECHNOLOGIES IN TEACHING ECOLOGICAL SCIENCE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 559-562.
19. Madina, G., & Adakhamjon, A. (2021). Conservation of flora. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 195-198.

20. Халматова, Щ Усманова, Т., & Акрамов, А (2022). Экологические последствия воздействия человека на растительный и животный мир. theory and analytical aspects of recent research, 1(5), 547-554.

21. Ahmedova, D., & Akramov, A. (2021, July). USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM. In Конференции.

22. Nishonboyev, A., Tukhtasinov, T., & Ro'zikov, M. (2023). WAYS TO FORM INDEPENDENT THINKING OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING MATHEMATICS. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(3), 49-51.

23. Nishonboyev, A., Tukhtasinov, T., & Ro'zikov, M. (2023). WAYS TO FORM INDEPENDENT THINKING OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING MATHEMATICS. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(3), 49-51.

**ELEKTRON RESURSLAR:**

1. <https://www.prizident.uz>.
2. <https://www.wikipedia.org>.
3. <https://www.lex.uz>.
4. <https://www.elib.buxdu.uz>